

# SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

**26 994**

134,5 %



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

**25 655**

130,8 %



## Yangi tashkil etilgan korxonalar (2021- yilda)

**466**


106,4 %



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




# Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



*Mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik*



*Xususiy korxona birlik*



## Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

# Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra)

5



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

6

24  
aksiyadorlik  
jamiyati

136  
unitar korxona

298  
boshqalar

4 831  
oilaviy korxona

7 096  
xususiy korxona

9 552  
mas'uliyati cheklangan  
jamiyat

**21 937**

tijorat korxonalarini

## Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamanagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lamanagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar oyida, birlikda)



# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar oyida, birlikda)

7



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2021-yil yanvar oyida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2021-yil yanvar oyida 466 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 252 ta, xususiy korxonalar – 88 ta, oilaviy korxonalar – 88 ta, muassasalar – 8 ta va boshqalar – 30 tani tashkil etdi.

## Oilaviy korxonalar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra 5 276 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 690 taga yoki 3,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 831 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 278 taga yoki 3,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 88 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 30 taga yoki 0,7 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, 9 930 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 108 taga yoki 126,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 9 552 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 864 taga yoki 124,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 252 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 52 taga yoki 1,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin..



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, 449 tani tashkil etib, ulardan 430 tasi yoki 95,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 63 taga yoki 117,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar oyida viloyatimizda 11 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar oyida, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati  
cheklangan jamiyatlar soni**  
(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**  
(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Jami</b>	<b>3 776</b>	<b>4 511</b>	<b>5 832</b>	<b>7 688</b>	<b>9 552</b>
<b>shu jumladan:</b>					
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	291	392	630	837	1 327
<b>Sanoat</b>	588	1 373	957	1 231	1 508
<b>Qurilish</b>	603	483	989	1 368	1 559
<b>Savdo</b>	1 293	175	1 725	2 370	2 992
<b>Tashish va saqlash</b>	404	732	506	580	631
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	138	744	222	300	364
<b>Axborot va aloqa</b>	49	75	81	103	113
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	29	41	68	91	121
<b>Boshqa turlar</b>	381	496	654	808	937

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

12



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	56	59	188	367	430
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6	7	57	91	108
Sanoat	33	7	52	99	118
Qurilish	2	4	10	21	24
Savdo	3	1	38	107	132
Tashish va saqlash	4	33	8	7	8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	1	6	18	16
Axborot va aloqa	1	1	1	2	2
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	1	2	4	5
Boshqa turlar	4	4	14	18	17

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni**  
*(2021-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)*

**13**



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


14

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>430</b>	<b>145</b>	<b>285</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>202</b>	<b>38</b>	<b>164</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Oltinsoy</b>	<b>7</b>	<b>6</b>	<b>1</b>
<b>Angor</b>	<b>21</b>	<b>6</b>	<b>15</b>
<b>Bandixon</b>	<b>x</b>	<b>x</b>	<b>x</b>
<b>Boysun</b>	<b>7</b>	<b>6</b>	<b>1</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>17</b>	<b>6</b>	<b>11</b>
<b>Denov</b>	<b>13</b>	<b>6</b>	<b>7</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>15</b>	<b>10</b>	<b>5</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>13</b>	<b>6</b>	<b>7</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>11</b>	<b>1</b>	<b>10</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>17</b>	<b>10</b>	<b>7</b>
<b>Termiz</b>	<b>43</b>	<b>18</b>	<b>25</b>
<b>Uzun</b>	<b>32</b>	<b>17</b>	<b>15</b>
<b>Sherobod</b>	<b>17</b>	<b>8</b>	<b>9</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>15</b>	<b>7</b>	<b>8</b>

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

15




2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (17,8 %), Denov (12,2 %), Jarqo'rg'on (8,0 %), Qumqo'rg'on (6,9 %), Sho'rchi (6,8 %), Termiz (6,7 %), Sherobod (6,2 %), Uzun (5,2 %), Qiziriq (5,1 %), Sariosiyo (5,0 %), Boysun (4,9 %), Muzrabot (4,7 %), Angor (4,6 %), Oltinsoy (4,2 %) va Bandixon tumanlarida (1,7 %) hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar oyida, birlikda)

2021- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Termiz sh. (23,2 %), Denov (13,7 %), Jarqo'rg'on (7,7 %), Sherobod (7,3 %), Boysun (6,4 %), Qumqo'rg'on (6,0 %), Sariosiyo (5,6 %), Sho'rchi (5,4 %), Uzun (5,0 %), Termiz (4,3 %), Muzrabot (3,4 %), Angor (3,2 %), Oltinsoy (3,0 %), Bandixon (3,0 %) va Qiziriq (2,8 %) ulushiga ega.




# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (26,0 %), Termiz (9,3 %), Denov (9,2 %), Jarqo'rg'on (7,4 %), Boysun (5,9 %), Sherobod (5,7 %), Sho'rchi (5,3 %), Qumqo'rg'on (5,1 %), Qiziriq (4,9 %), Angor (4,5 %), Muzrabot (4,5 %), Sariosiyo (4,2 %), Uzun (3,5 %), Oltinsoy (2,9 %) va Bandixon (1,6 %) ulushiga ega.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**  
(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)


17



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar oyida, birlikda)



2021- yil yanvar oyida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Denov (22,7 %), Jarqo'rg'on (12,5 %), Sariosiyo (12,5 %), Uzun (10,2 %), Sherobod (6,8 %), Sho'rchi (6,8 %), Qumqo'rg'on (5,7 %), Qiziriq (4,6 %), Muzrabot (3,4 %), Termiz (3,4 %), Angor (3,4 %), Termiz sh. (2,3 %), Boysun (2,3 %), Bandixon (2,3 %) va Oltinsoy (1,1 %) tumanlari ulushiga ega.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021- yil yanvar oyida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- sentabrdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The top navigation bar includes links for RSS, Bayroq, Gerb, Madhiya, Shaxsiy kabinet, and social media icons. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". Below the title, there are links for O'zbek, Rossijskij, English, ASOSIY SAHIFA, QO'MITA HAQIDA, AXBOROT XIZMATI, INTERAKTIV XIZMATLAR, OCHIQ MA'LUMOTLAR, MUROJAATLAR, KONTAKTLAR, and Qidirish. A search bar is present at the top right. The left sidebar lists "RASMIY STATISTIKA" categories: El'on qilish taqimisi, Metama'lumotlar, Makroko'rsatkichlar, Milliy hisoblar, Narx va indekslar, Investitsiyalar, Qurilish, and Tashqi iqtisodiy faoliyat. The central search interface has a dropdown menu for "Xizmatlar ro'yxati" containing options like Elektron hisobot, KTYaDR ma'lumotlari, Uslubly materiallar, Statistik klassifikatsiyalar, Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati, and Korxona pasporti. Below this is a form with fields for "Rasmidagi kodni kiriting" and "Kodni yangilash uchun rasmga bosing", with a "Qidiruv" button. To the right, there is a section titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" listing various reports and publications. The footer contains a link to the classification code search page: <https://stat.uz/uz/bizmat/klassifikator>.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel. (76) 225-65-90**